


27. Parallel va perpendikular to'g'ri chiziqlar

Yondosh mavzu:
Hosildorlik

To'g'ri chiziqlar,
parallel to'g'ri chiziqlar,
perpendikular to'g'ri chiziqlar,
kesmalar, burchaklar



1. Gul pushtalari bir-biriga qat'iy parallel bo'lishi kerak. Quyidagi pushtalar bu shartga javob beradimi?



Agar har bir pushtaning uzunligi 60 m bo'lsa, pushtada gullar bir-biridan qanday masofada ekilgan?

2. Devor ustunlari yerga perpendikular bo'lishi kerak. Qaysi ustun to'g'ri turganini aniqlang.



Parallel to'g'ri
chiziqlar hech
qachon kesishmaydi.

Perpendikular to'g'ri
chiziqlar to'g'ri burchak
ostida kesishadi.



27. Parallel va perpendikular to'g'ri chiziqlar



3. Ikkita vertikal parallel to'g'ri chiziq chizing. So'ngra ular bilan kesishadigan ikkita gorizontaal parallel to'g'ri chiziq chizing. Kesishish natijasida hosil bo'lgan shaklni bo'yang. Bu qanday shakl?




4. Daftaringizga bo'yi $(640 - 160) : 3$ cm va eni bo'yidan $(401 - 399)$ marta kichik bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping.



5. Hosildorlik bir kvadrat metrdan necha kilogramm sabzavot yig'ib olinganini ko'rsatadi. Qaysi sabzavotning hosildorligi yuqori?
- a) Bir tupdan o'rtacha 15 kg pomidor olinadi. Bir kvadrat metrda 3 tup pomidor butasi o'sadi.
- b) 20 m² maydondan o'rtacha 120 kg bodring terib olinadi.



6. "Husayni" navli uzum 4 gektardan 68 t, "Oq kishmish" navli uzum esa 9 gektardan 108 t hosil beradi. Qaysi navning hosildorligi yuqori va qancha yuqori?



7. Yuzalarni taqqoslang.

423 cm² ☐ 42 dm² 3 cm²

71 ha ☐ 71 500 m²

5 600 ha ☐ 56 km²

605 dm² ☐ 6 m² 5 dm²

1 dm² 40 cm² ☐ 14 dm²

45 000 m² ☐ 450 ha


19 km² ☐ 190 000 m²

33 m² ☐ 350 dm²

27. Parallel va perpendikular to'g'ri chiziqlar



8. Chizmadan dala maydonining yuzini toping. Dalaning hosildorligi gektariga 70 sentner bo'lsa, undan necha tonna makkajo'xori olish mumkin?



9. Tengsizlikni soddalashtiring.

$$x < (2\,235 : 3 \cdot 8 - 2\,705 \cdot 2) : 5 - 30$$

a) Tengsizlikning barcha yechimlari to'plamini yozing.

b) Bu to'plamning bir vaqtning o'zida ham 2 ga, ham 3 ga bo'linadigan barcha elementlarining tagiga chizing.




10. Harflarni raqamlar bilan tenglik to'g'ri bo'ladigan qilib almashtiring. Bir xil harflar bir xil raqamlarga va turli harflar turli raqamlarga mos keladi.

$$\begin{array}{r} \text{I K K I} \\ + \text{I K K I} \\ \hline \text{K O' R K} \end{array}$$



11. Namunadagi kabi daftaringizga ikkita gorizontal va ikkita qiya parallel to'g'ri chiziq chizing. Kesishish natijasida hosil bo'lgan shaklni bo'yang. Uning tomonlarini millimetrlarda o'lchab, perimetrini toping.



12. Kvadrat santimetrga aylantiring va hisoblang.

a) $3\text{ dm}^2\,47\text{ cm}^2 + 7\text{ dm}^2\,18\text{ cm}^2 - 1\text{ dm}^2\,45\text{ cm}^2$

b) $(2\text{ m}^2 + 15\text{ dm}^2 - 432\text{ cm}^2) : 2$

d) $(4\,500\text{ m}^2 - 141\text{ dm}^2 + 6\text{ m}^2\,36\text{ dm}^2) : 3$